



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

13-noyabr 2025-yil

СБОРНИК материалов

**международной научно и научно-технической конференции на тему
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

13 ноября, 2025 г

**International scientific and scientific-technical conference
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK
AND THEIR SOLUTIONS"**

November 13, 2025

NUKUS-2025

“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to‘plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

Anjuman tashkiliy qo‘mitasi

Tashkiliy qo‘mita raisi: Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

Tashkiliy qo‘mita raisi muovini: Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

Tashkiliy qo‘mita kotibi: Rozumbetov Kenjabek Umar og‘li, b.f.f.d.;

D. Bazarbayeva – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

Sh. Jabbarov – O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

X. Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

M. Y. Karpuxin – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

N. G. Malkov – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

A. Abdurasulov – Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, professor. (Qirg‘iziston Respublikasi)

R. Miqtibayeva – Qozog‘iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog‘iston Respublikasi)

S. Mirzakulov – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog‘iston Respublikasi)

Q. Atanazarov – O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

A. Mambetnazarov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent.

A. Kaniyazov – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

X. Mamatov – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

R. Turg‘anbayev – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

A. Kamalova – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

P. Xojalepesov – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

R. Rzaev – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i bilan oliy ta‘lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o‘qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan

To‘plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to‘g‘riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas‘ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MINTAQASIDAGI ILIQ VA CHUCHUK SUV HAVZALARINING TAVSIFI

Mamatov X.A., Ubaydullaeva G., Allamuratova B., Jumanazarova G.A.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

Kirish. O‘zbekistondagi daryolar, asosan, tog‘lardagi qor va muzliklardan hamda yomg‘ir suvlaridan to‘yinadi. O‘zbekiston hududini kesib o‘tuvchi eng katta suv arteriyalari bo‘lmish Sirdaryo va Amudaryo hamda ularning irmoqlari O‘zbekistondan tashqarida boshlanadi. O‘zbekistonning yirik daryolari: Norin, Qoradaryo, So‘x, Chirchiq, Zarafshon, Surxondaryo, Qashqadaryo, Sheroboddaryo. Ularning ko‘pchiligi faqat o‘rta va quyi oqimida O‘zbekiston hududidan o‘tadi. Daryo, odatda, relyefning cho‘ziq pastliklarida — vodiylarda oqadi, uning eng past qismi o‘zan, daryo suvi ko‘payganda o‘zandan chiqib bosib ketadigan vodiy tubining o‘zanga tutash qismi esa kayir yoki qayir terrasasi deyiladi. O‘zanlarda chuqur va sayoz joylari almashinib boradi. O‘zanning eng chuqur joylari — farvater, oqim tezligi eng katta bo‘lgan joylari esa tezoqar joy deyiladi.

Daryoning flora va faunasi bentos, plankton va nektondan iborat. Daryo tubining tuzilishiga qarab qar xil daryo tubi hayvonlari uchraydi. Daryoning sekin oqadigan qismida yuksak suv o‘simliklari uchraydi. Suv o‘tlar va toshlar orasida ko‘plab mayda jonzotlar yashaydi. Erkin suzadigan planktonlarga yarim mikroskopik va mikroskopik hayvonlar (mayda qisqichbaqasimonlar, kolovratka) va suvo‘tlar (fitoplankton) kiradi. Nektonga oqimga qarshi suza oladigan baliqlar mansub. Daryolarning quyi qismi va ularning deltalari baliqqa boy. Daryoda suv omborlari barpo qilish planktonlarning sonini oshirdi. To‘g‘on va gidrouzellar qurilishi ovlanadigan o‘tkinchi baliqlarning (ayniqsa losossimon va osyotrsimonlar) tabiiy migratsiyasiga to‘sqinlik qiladi va ko‘payishiga halaqit beradi. Daryolarning sanoat va xo‘jalik oqova suvlari bilan ifloslanishiga yog‘och chiqindilari, shuningdek, mineral o‘g‘itlar va zaharli kimyoviy moddalarning qo‘shilishi ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Orol dengizi. Taxminan 60 yil oldin Orol dengizi dunyodagi to‘rtinchi va Markaziy Osiyodagi eng katta dengiz edi. O‘zbekiston va Qozog‘iston hududlarida joylashgan dengiz baliqchilik sanoatining markazi va ajoyib dam olish joyi bo‘lgan. Odamlar dengizda suzish, qumli plyajda quyosh botishini tomosha qilish uchun respublikaning barcha hududlaridan kelishgan. Afsuski, texnogen falokat tufayli (sabablari hanuzgacha tortishuvlarga sabab bo‘lgan), dengiz tez quriy boshladi. Natijada, dengiz ikki qismga bo‘linib, qisqargan, oldingi tubida sho‘r botqoqlari bo‘lgan jonsiz Orolqum cho‘lini qoldirdi.

Zarafshon o‘rta va quyi oqimda Samarqand va Navoiy viloyatlaridan oqib keladigan sanoat, kommunal-maishiy va kollektor – drenaj suvlarini qabul qiladigan kollektorga aylanadi. Daryoga Chig‘anoq kollektori oqova suvlari quyilganidan keyin uning suvi tarkibida ammoniy va nitrit azoti, fenollar va neft mahsulotlari ko‘payadi, yuqori to‘yingan pestitsidlar miqdorining oshishi ham qaydetilgan.

Bugungi kunda Aydarko‘lning turli hududlarida suvdagi tuz miqdori 4-16,5 g/l gacha, o‘rtacha 10,2 g/l ni tashkil etadi. Suvning sho‘rlanish darajasi 3,2-12,2 g/l gacha o‘zgaradi.

Sho‘rko‘l suv omborining biogen elementlari azot va fosfordir. Azot ko‘rsatkichi suv omborining ochiq joylarida 0,01-0,03 mg/l, fosfor ko‘rsatkichi 1,001-0,003 mg/l. Ammo, Konimex kollektori va Zarafshon daryosi orqali keladigan suvda azot 0,1 mg/l, fosfor 0,05 mg/l ni tashkil qiladi. Lekin suvning asosiy qismi Amu-Buxoro kanali orqali quyiladi. Suv havzasi muhitining ko‘rsatkichi pH suv sifatini aniqlashda indikator bo‘lib, pH - 7,0 da neytral muhit, pH - 7,0 dan yuqori bo‘lsa ishqori muhit (alkoloz) va pH - 7,0 dan kichik bo‘lsa kislotali muhit (atsidoz) hisoblanadi. Sho‘rko‘l suv omborining pH ko‘rsatkichi 7,8-8,2 gacha tebranib turadi. Sho‘rko‘l ko‘li o‘rnida suv ombori tashkil qilingandan so‘ng, uning gidrologik va gidrobiologik holati o‘zgarib, ixtiofaunasi, ozuqa bazasi ham

ancha boyidi. Sho'rko'l suv omborining fizika - kimyoviy rejimi gidrobiontlar uchun qulay muhit hisoblanadi.

To'dako'l ombor suvining pH ko'rsatkichi 7,6 – 8,2 ga teng umumiy mineralizatsiyasi xlorid-sulfatli suv sinfiga, kalsiyli suv guruhiga mansubdir. Barcha suv ombori baliqlarning asosiy ozuqa ob'yekti yuqori darajali suv o'simliklari, suv o'tlari, fitoplankton, zooplankton, zoobentos hisoblanadi. Zarafshon daryosi ixtiofaunasi 7 oilaga mansub, 31 tur (kenja tur) baliqdan, Sho'rko'l suv ombori ixtiofaunasi 4 oilaga mansub, 18 tur (kenja tur) baliqdan, (ularning 12 turi ovlanish ahamiyatiga ega bo'lgan baliqlardir) va Tudako'l suv ombori ixtiofaunasi 7 oilaga mansub 31 tur baliqdan iborat.

Navoiy viloyatida suv havzalari bioresurslaridan oqilona foydalanib baliqchilik tarmog'ini rivojlantirish mumkin. Viloyat hududida baliqchilik tarmog'ini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lgan suv sig'imi 250 – 260 mln. m^3 , maydoni 2516 ga ni tashkil qiladigan Sho'rko'l suv ombori, suv hajmi 1,2 mlrd/ m^3 , maydoni 22 ming/ga teng bo'lgan To'dako'l suv ombori hamda Aydar-Arnasoy ko'llar tizimiga (180 ming/ga) kiruvchi maydoni 140 ming/ga bo'lgan Aydarko'l ko'li joylashgan.

Xulosa. Respublikadagi yirik suv havzalariga ega bo'lgan Navoiy viloyati, baliqchilik tarmog'ini ilmiy asosda rivojlantirishi uchun katta qo'layliklarga ega. Mavjud imkoniyatlardan oqilona, zamon talablaridan kelib chiqqan holda, yuksak texnologiyalar asosida ishlar tashkil etilsa, viloyatimiz aholisini sifatli baliq mahsulotlari bilan ta'minlashdek dolzarb muammo o'z yechimini topadi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qishloq xo'jaligi statistikasi byurosi. 2020 yil. 2020 yilda baliqchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish.
2. CSST.2017. Direktivning 6-moddasi maqsadlari uchun keng qamrovli tadqiqotlar. 91/271 EEC. Shahar chiqindi suvlarini tozalash bo'yicha direktiva. Shotlandiya atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi (Sharqiy mintaqa). 2022 yil.
3. Dojlido, J., va G.A.Best. 2024. Suv kimyosi va suvning ifloslanishi. G'arbiy Sasseks: Ellis Horwood Limited.
4. Shavkat, A., Kural, A., & Gayratdin, O. (2025). ORGANIZATIONAL SYSTEM OF PERSONNEL POLICY AIMED AT IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions, 2(4), 98-102.
5. Shavkat, A. va Kural, A. (2025). OLIY TA'LIM MASSASALARIDA TA'LIM SIFATI VA TA'LIM QIMMATINI ORTALASH UCHUN TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TASHKILLASH. Ta'lim sifatini ta'minlashning ilg'or usullari: muammolar va echimlar , 2 (4), 85-88.
6. Nurmanov, K., & Nurmanov, D. A. (2025). PENSIYA JAMG 'ARMALARIDA HISOBNI TASHKIL ETISH VA XARAJATLAR SMETASI IJROSI BO 'YICHA HISOBOTI TAHLILI. *MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT*, 3(12).
7. Nurmanov, DA O 'zbekiston Pensiya Tizimida Pensiya Hisoblash Va To'lashni Rivojlantirishda Xorijiy Mamlakatlar Tajribasini Uyg'unlashtirish. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot* , 2 (1), 664247.
8. Tileubayevich, N. D. A. (2024). PENSIYA TAYINLASH VA TO 'LASH MUOMALALARINING ANALITIK VA SINTETIK HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(02), 254-262.
9. Nurmanov, D. A. Issues of Improving Accounting and Reporting of Expenses in Off-budgetary Pension Funds. *Economic Development and Analysis*, 2(1), 425-432.